

**SHE'RIYATDA BAG'ISHLOV JANRINING SHAKLIY
XUSUSIYATLARI (SHUKUR QURBON IJODI MISOLIDA)**

Qosimova Dildora

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Univeristeti,
Filologiya fakulteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek she’riyatida bag ‘ishlov janri, uning qasida bilan o‘xhashlik va farqli jihatlari, shuningdek ushbu janrning shakl xususiyatlari Shukur Qurbonning bag‘ishlov janrida yozilgan she’rlari misolida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: bag‘ishlov, xat va noma janrlari, qasida, memuar asar, barmoq vazni.

Ma’lumki, sharq mumtoz adabiyotida qasida yozish an’anasi mavjud. Qasida arabcha so‘z bo‘lib, “azm- qaror qilish”, “maqsad”, “qasd qilmoq” ma’nolarini anglatadi, Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronov o‘zining “Adabiyotshunoslilik lug‘ati” nomli kitobida qasidaga “mumtoz lirikadagi janr; biror shaxs(shoh, arbob, qahramon), biror muhim voqeа, tabiat va shu kabilarni madh etish, ularning yuksak fazilat va xususiyatlarini e’tirof etish maqsadida yoziladigan she’r”¹ deya tarif berilgan. Qasidaga o‘xhash zamonaviy adabiyotimizda(aniqrog‘i yangi o‘zbek she’riyati davridan boshlangan) bag‘ishlov janri ham borki, biror shaxsga atalishi bilan qasidaga, o‘zining munosabatini bayon qilishi bilan xatga, muallifning o‘z hayotida, o‘ziga tanish bo ‘lgan kishilar bo‘lishi bilan memuarga, she’r qahramonining hayotda bo‘lmasligidan kyunib yozilishi bilan marsiyaga o‘xshab ketadi. Ular o‘rtasidagi poetik o‘lchamni aniqlash bag‘ishlov janrining she’riyatdagi o‘rnini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bag‘ishlov fors-tojik tilidan olingan so‘z bo‘lib, “bermoq” ma’nosini anglatadi. Bag‘ishlov u yoki bu kishiga bag‘ishlanuvchi she’r janri, ammo qasida yoki xat emas. “U janr sifatida o‘zbek adabiyotiga ovrupo adabiyotidan kirib kelgan”.² Bag‘ishlovlarda ko‘pchilik shoirlar janrni qayd etib qo‘yishadi: “avvalo asarning matniy(tashqi) qurilishi ham asosiy va yondosh maatn(ramka unsurlari) farqlanadi. Misra va bandlarga bo ‘linish asosiy matnga taalluqli bo‘lsa, sarlavha, janr qaydi, epigraf, bag‘ishlov, she’r yozilgan sana va joy qaydi ramka unsurlaridandir”. “Adabiyotshunoslilik lug ‘ati”da bag‘ishlov janriga shunday ta’rif berilgan: “Bag‘ishlov(rus. Пояснение) 1) asarning biror bir shaxsga bag‘ishlanganini ifoda etuvchi qismi, debocha; metsenatlikning paydo bo ‘lishi bilan bog‘liq holda antic Rimda urfga kirgan, keyinchalik Yevropa adabiyotlarida an’anaga aylangan.

¹ Курунов Д ва бошкадар. Адабиётшунослик лугати.-Тошкент,Академнашр,2013.383-бет.

² Туйчиев У.Адабий турлар ва жанрлар.II жилд. Тошкент: “Фан” нашриёти.1992.-163-б.

Bag‘ishlov she’riy yoki nasriy yo‘lda bitilib, asarning boshlanish qismidan joy olgan...2) zamonaviy adabiyotda bag‘ishlov asarning muallif hurmati, e’zozi, minnatdorligi, muhabbatи va h.k. tuyg ‘ular ifodasi sifatida biron bir shaxs, uning xotirasi, muayyan bir joy, muassasa, voqeа-hodisa va shu kabilarga bag‘ishlanishi, shu haqidagi qayd. Odatda, bag‘ishlov asar sarlavhasidan keyinroq qayd etib qo‘yiladi. Masalan, A. Oripovning “Arslon chorlagandi” she’riga “E. Vohidovga” tarzida bag‘ishlov yozilgan. 3) lirik janr, biror bir shaxs(narsa, joy)ga murojaat shaklida yozilib ko‘proq uni ta’riflash, unga munosabatini ifodalashga qaratilgan sheriy asar. A. Oripovning “Kursdoshlarimga,”, “Sergey Yesininga”, “Dengizga”, “Hamid Olimjon xotirasiga”, “Munojot”ni tinglab”, “Nomalum ayol suratiga” kabi she’rlari bag‘ishlov janrining sara namunalari sifatida ko‘rsatilishi mumkin”.³ Demak bag‘ishlov qasidadan faqat vazn xususiyati bilan emas, ortiqcha maqtov va dabdabalardan holi ekanligi, tantavorlik va ko‘tarinki ruh yetakchilik qilmasligi, ko‘proq yaqin o‘tmish va zamondoshlariga bag‘ishlanishi va janr qayd etib qo‘yilishi kabi xususiyatlari bilan ham farq qilar ekan.

Shoir Shukur Qurbon ijodida bag‘ishlovlар salmoqli o‘rin egallagan: “Ko‘prik”(Mehdi Anvar o‘g‘liga), “Qishloq shoiri”(Respublikada xizmat ko‘rsatgan o‘qituvchi A.Sultonovga), “Shohi Zinda”(Ajnabiy sayyoohlarga), “Armon”(Hamqishlog‘im, Karimjon aka Usmonovga), “Meshkobchi”(Davlatboy buva xotirasiga), “Ovoz”(Sherali Jo ‘rayevga) kabi she’rlari misol bo‘la oladi. Shoiring bu turdagи bag‘ishlovlari ichida “Ustoz”(Ozod Sharafiddinovga)⁴ she’ri alohida ajralib turadi:

Avvalo, siz sabab anglay boshladim
Ul-bul mazmunini kirib shu yoshga.
“Shoirlik...darvishlik...boshqa boshadir,
She’r boshqa, ko ‘pirgan hamd sano boshqa!
Qanday tushunibman sizni bilmadim,
Ustoz, hukmingizga havoladir bu.
Yolchib yozolmasam, yolchib qiyaldim...
Shogirdlar noshudligi-behudud qayg‘u!
She’riyat o‘lkasin so‘qmoqlarida
To shu kun umid-la kezaman tolmay.
Lekin o‘quvchilar sinoqlaridan
Yorug‘ yuz-la o‘tsam deyman, har qalay.
Ayon, hali hozir she’rlarim g‘o‘ra,
Kamtarlikka yo‘ymang ustoz bu so‘zni.
Katta shoir bo‘lmay qolishdan ko‘ra
Men dog‘da qo‘yishdan qo‘rqaman sizni...

³ Куронов Д ва бошқалар. Адабиётшунослик лугати.-Тошкент, Академнашр, 2013.-69-б.

⁴ Шукур Курбон. Сайланма.-Тошкент.: Алишер Навоий номидаги Миллий кутубхона нашриёти, 2011.-91-б.

Ushbu bag‘ishlov to‘rtlik band shaklida yozilgan. “Tadbirkor” she’rida “Nurmirza Tursunovga”⁵ deb keltirilgan she’ri ikkilik shaklda yozilgan:

O‘zlarining ahvolini o‘ylash o‘rniga
Tavba qilib, iymonlarin o‘nglash o‘rniga ,
Topgan-tutgan savoblarin Qodiri Alloh
Unga olib berishidan bexabar mutloq,
Bu qishloqdan bir insonni gapirmagan kam,
Yoshlikdagi xatosidan lof urmagan kam,
U-chi? Parvo qilmaydi hech-Xudoni bilgan
Gunohlari uchun demak, tavba ham qilgan...

Bunda shoir zamondosh shaxsga munosabatini bildirish uchun ikkilik shaklni maqlul ko‘radi.

Shoirning yana bir bag‘ishlov she’ri g ‘arb adabiyotidan kirib kelgan “...ga”⁶ sarlavhali she’ridir(bunday sarlavhali bag‘ishlov she’rlari rus she’riyatida XVII-XIX asrlarda urfga kirgan edi):

Qaytsaydingiz yonimga bir kun,
Qaytsaydingiz besharpa, beun
Ko‘kragimga qo‘ysangiz-u bosh,
Achchiq-achchiq to‘ksangiz ko‘z-yosh...
Yashayapsiz siz mendan yiroq...
Ammo ishqni tan olinmagan
Mashuq holing bilsaydingiz, oh,
Qaytsaydingiz yonimga bir kun.

Ushbu she’r barmoq vaznining to‘rtlik shaklida, a-a-b-b va a-b-a-b qofiyalanishi tarzida yozilgan.

Shoirning “Qaytish” she’ri o‘zi tug‘ulib o‘sgan Baliqchi tumaniga bag‘ishlab yozilgan. “Qaytish” she’rida to‘rtlik, beshlik va otilik band she’rlarning aralash holda kelishini kuzatamiz:

Bu azim poytaxtdan bosh olib butkul,
Baliqchim, men senga qaytaman, endi.
Keragidan ortiq mehmon qildi u
Keragidan ortiq mehrini berdi,
Lekin vidolashuv onlari keldi.

“Nima olib kelar menga” deganday,
Balki, yo ‘llarimga ko ‘z tikasan, hay.
Ey, voh! Bisotimda sen uchun qanday
Narsam bor arzirlik? Bilmam, har qalay,

⁵ Худди шу китоб-151-б.

⁶ Шукур Курбон. Сайланма.-Т.:Алишер Навоий номидаги Милллий кутубхона нашриёти, 2011.-54-6.

Sarhisobning achchiq damlari keldi,
Baliqchim, men senga qaytaman, endi.
Zero bundan o‘zga baxt yo‘q, tole yo‘q,
Seni tushunganga, seni bilganga.
Seni sevgan farzand hammadan ortiq,
O‘lim ham qo‘rinchli ko‘rinmas unga.

Shukur Qurbanning “Shoir Muhammad Yusufga” deb nomlangan bag‘ishlovishlov she’rii sarbastda yaratilganligi uchun bilan kuchli ohang bilan o‘qiladi:

Men ham,
Agar men ham o ‘sha muddatni
Sotqin bir muddatni yengmaganimda
Bolalab ketarmidi ular nogahon
Mening hayotimda ham
Muhammad Yusuf?...

Shu o ‘rinda sarbastda yaratilgan ushbu bag ‘ishlov she’rni “shakl” sifatida baholadik. Adabiyotshunos olim Ulug‘bek Hamdam sarbastni mustaqil she’r tizimi emas, balki she’riy shakl sifatida baholaydi.⁷

Xulosa qilib aytganda bag‘ishlov janrini ko‘pchilik adabiyotshunoslар yevropa adabiyotidan kirib kelgan deb hisoblasalarda, sharq mumtoz adabiyotida bu janrning unsurlari qasida janrida “yashab kelmoqda” edi. Yangi o‘zbek adabiyoti davri-janrlar borasidagi izlanishlar davri bo‘ldi va shu davrda bu janr rivojlanish bosqichiga kirdi. Bag‘ishlov janrida she’rlar yaratilar ekan, turli she’riy shakllarda: ikkilik, uchlik, to ‘rtlik, beshlik va h.k.larda... ifodalandi. Zamonaviy she’riyatda ham bag‘ishlov yozish an’anasi davom etmoqda.

Adabiyotlar:

- 1.Туйчиев У.Адабий турлар ва жанрлар. II жилд. Тошкент: “Фан” нашриёти.1992.-248 бет.
2. Куронов Д. Ва бошқалар. Адабиётшунослик лугатио.-Тошкент, Академнашр, 2013.-412 бет.
3. Шукур Курбон. Сайланма. Тошкент: 2011.-296 бет.
4. Хамдомов У. Янги узбек шеърияти. Монография.Тошкент:2012.-250 бет.

⁷ Хамдомов У. Янги узбек шеърияти. Тошкент: 184-6.